



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA
VA MAKTAB
TA'LIMI VAZIRLIGI




No9
2025

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

M

MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



*Elektron nashr. 184 sahifa,
2-sentyabr, 2025-yil.*

BOSH MUHARRIR:

Karimova E'zoza Gapirjanovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Wookyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (Phd)
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Mirzayeva F.O. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Doniyorov S. M. – "Yangi O'zbekiston" va "Pravda Vostoka" gazetalarini tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari nomzodi (PhD)
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

EDITOR-IN-CHIEF:

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

EDITORIAL BOARD MEMBERS:

Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician

Shoumarov G'. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician

Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor

Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor

Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)

Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)

Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)

Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)

Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)

Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)

Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor

Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)

Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor

Mirzayeva F.O. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service

Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor

Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)

Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the Editorial Board of the newspapers "Yangi Uzbekiston" and "Pravda Vostoka", Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Candidate of Philological Sciences (PhD)

Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor

Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics

Ashurov R. R. – doctor of philosophy (PhD) in psychology

Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region

Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun

Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences

“Maktabgacha va maktab ta’limi” jurnali O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo‘yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo‘yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

“Maktabgacha va maktab ta’limi”
jurnali

26.09.2023-yildan

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti
Administratsiyasi huzuridagi Axborot
va ommaviy kommunikatsiyalar
agentligi tomonidan **№C-5669363**
reyestr raqami tartibi bo‘yicha
ro‘yxatdan o‘tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

MUNDARIJA

Maktabgacha ta'lim tashkiloti innovatsion faoliyatini rivojlantirish jarayoni.....	14
Ibragimova Gulsanam Nematovna	
Sun'iy intellekt texnologiyalarining ta'lim metodikasida qo'llanilishi va o'qituvchi kompetentligiga ta'siri	22
Abduyev Sheroz	
Boshlang'ich ta'limda "tabiatshunoslik" fanini raqamli platformalar orqali o'qitish metodikasini takomillashtirish: 5e modeli asosida dizayn, baholash va joriy etish.....	25
Ahmadaliyev Shohruh Bahromjon o'g'li	
Ingliz va rus leksikografiyasida o'zbek milliy taom nomlarining lingvistik tahlili	30
Bobojonova Zarina Rashidovna	
Rahbarlarda til bilish darajasi va hissiy intellekt (eq): o'zaro bog'liqlikni o'rganish	34
Isaqlulova Baxtigul Xo'jamovna	
Frazeologizmlarni o'rgatishda matn asosida integratsiyalashgan dars modeli: xorijiy til o'rganuvchilar tajribasi	38
Jumayeva Sadbarg Mirolimovna	
O'zbekistonda maktabgacha ta'lim tashkilotlarida inklyuziv ta'limni tashkil etishning o'ziga xos xususiyatlari: rivojlangan davlatlar tajribasi tahlili	42
Karimova Moxichehra Rixsibayevna	
Rus va ingliz tillarida sharqona realiyalarning leksik-semantik tasnifi	46
Kulmamatova Aziza Do'stmamat qizi	
TRIZ metodikasi asosida texnokratik bolalar bilan ishlash tizimini takomillashtirish	50
Orifjonova Mavludaxon Abduqaxxor qizi	
Raqamli ta'lim muhitida pedagogik kompetensiyalarni rivojlantirish.....	53
Raximberganova Munajat Muzaffar qizi	
Structure of Social Conflict and Stages of its Development	57
Zaynutdinova Shahnoza Yuldashevna	
Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining ijodiy faoliyatini baholash va rag'batlantirish tizimini takomillashtirish.....	60
Abduraxmonova Nigoraxon Akramali qizi	
Expression of National Mental Characteristics in the Uzbek Lullaby.....	64
Alimbayeva Shaxlo Tursunovna	
Bo'lajak "texnologiya" fani o'qituvchilarini kasbiy faoliyatga tayyorlashda kreativ kompetentlikni rivojlantirish tizimining pedagogik zarurati	69
Avazov G'oyibnazar Berdiyevich	
Bo'lajak tarbiyachilarda integratsiyalashgan ta'lim faoliyatini rivojlantirish orqali kommunikativ salohiyatini shakllantirish	72
Baratova Yulduz Asadullayevna	
Umumta'lim maktablarida molekulyar fizikani o'qitishning hozirgi holati	76
Boymirov Sherzod Tuxtayevich, Xudoynazarova Visola Musurmonqul qizi	
Ingliz tilini o'qitishda talabalarining mustaqil ta'lim olish kompetensiyasini akt vositasida rivojlantirish	80
Ergasheva Sevaraxon Ravshanjon qizi	
Maktabgacha ta'lim pedagoglarining kasbiy kompetentligini rivojlantirish istiqbollari.....	84
O'rinova Feruzaxon O'ljayevna, Karimova Gulzodaxon Marufjon qizi	
IIV litsey o'quvchilarining liderlik kompetensiyasini rivojlantirishning psixologik xususiyatlari.....	90
Gadoyeva Dildora Baxtiyorovna	
Improving the System of Human Resource Capacity Management in Higher Education Institutions: Evidence from Uzbekistan	98
Imomov I., Umirova D.	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida tarbiyalanuvchilarni mantiqiy va tanqidiy fikrlashga o'rgatishning zamonaviy usullari.....	104
Iskandarova Munisa Bahodir qizi	
Tarbiyachi-pedagoglarning emotsional kompetensiyasini rivojlantirish	107
Jovmirzayeva Nargiza Quvondiqovna	



Maktabgacha ta'lim yoshdagi giperaktiv bolalarga ta'lim berishning pedagogik-psixologik usullari	110
Jo'rayeva Nargiza Toirovna, Kamalova Sarvinoz	
Blum taksonomiyasi asosida ilmiy kompetentlikni takomillashtirishning o'ziga xos xususiyatlari	113
Mustafayeva Nilufar Ulashovna	
Maktabgacha yoshdagi ovoz buzulishiga ega bolalar bilan guruhli mashg'ulotlarni tashkil qilish	117
Umida O'tbasarova Mexmanovna, Maksudbekova Xovvaxon Xamidbek qizi	
Bolalar jamoasida do'stona munosabatlarni shakllantirishda rivojlanish markazlarida loyiha asosida o'qitish texnologiyasidan foydalanish usullari	121
Quronova Ismigul Xolmurod qizi	
Kichik maktab yoshidagi o'quvchilarda innovatsion metodlar orqali o'z-o'zini rivojlantirish ko'nikmalarini shakllantirish metodikasi	126
Rustamova Davlatxon Toyirjon qizi	
Oliy ta'limda tarbiyaviy faoliyatni tashkil etishning innovatsion modellari	131
Sanayeva Surayyo Bobonazarovna	
"Tibbiy radiologiya" fanini o'qitishda pedagogik muloqot orqali tanqidiy operativ muloqotni o'stirishning o'ziga xos xususiyatlari	139
Shukurova Sevara Ilhomovna	
Improving High Jump Techniques	143
Tajimbetov Anvar Tengeldayevich	
Filologik va ijtimoiy-siyosiy fanlarda ta'lim jarayonining innovatsion metodlari	146
Yuldasheva Dilnoza Bekmurodovna	
Понятие логического мышления и его особенности у младших школьников	149
Ахмаджонова Нозима Нодиржон кизи	
Интеграция психологии, обучения английскому языку, дошкольного образования и туризма: междисциплинарная модель формирующего опыта	152
Омонуллаева Дилофуза Асадулла кизи	
Maktabgacha yoshdagi bolalarning o'yin faoliyatida ijtimoiy motivlarni shakllantirish usullari	157
Abduvaxobova Nodira	
Boshlang'ich ta'limda kognitiv faollikni rivojlantirishning afzalliklari	160
Ismailova Nozima Umaraliyevna	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarini matnni tahlil qilishga o'rgatishda zamonaviy yondashuvlarning ahamiyati	164
Utanbayeva Dildora Abdixadirovna	
Dorivor o'simliklar kursini o'qitish metodikasini takomillashtirishda keys texnologiyalaridan foydalanish	168
Mirzaboyev Timur Bisenbay o'g'li	
Oliy ta'lim talabalarida ijtimoiy-axloqiy kompetensiyani rivojlantirish: empirik tadqiqot natijalari	171
To'raqulov Akbar Rustam o'g'li	
Gerontotexnologiya ijtimoiy-pedagogik innovatsiya sifatida	175
Temirova Muyassar Abdulkarim qizi	
O'quvchilarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalashda Sharq mutafakkirlarining qarashlaridan foydalanish	180
Raximova Surayyo Otabek qizi	



OLIV TA'LIM TALABALARIDA IJTIMOIY-AXLOQIY KOMPETENSIYANI RIVOJLANTIRISH: EMPIRIK TADQIQOT NATIJALARI

To'raqulov Akbar Rustam o'g'li

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti

"Pedagogika va psixologiya" kafedrası katta o'qituvchisi

ORCID: 0009-0007-2314-8170

Annotatsiya: Mazkur maqolada talabalarda ijtimoiy-axloqiy kompetensiyalarni rivojlantirishning mazmuni, shakl va usullari tahlil qilingan. Tadqiqotning maqsadi – zamonaviy ta'lim tizimida talabalarining ma'naviy-axloqiy sifatlarini shakllantirish mexanizmlarini takomillashtirishdan iborat. Unda Piaget, Erikson, Kohlberg kabi olimlarning nazariyalari asosida nazariy asoslar yoritilgan. UNESCO va OECD hisobotlari hamda zamonaviy xorijiy tadqiqotlar bilan taqqoslash olib borilgan. Muallif empirik kuzatuv va tahlillardan foydalanib, talabalarining ijtimoiy-axloqiy qaror qabul qilishdagi ustun va zaif tomonlarini aniqlagan. Olingan natijalar xalqaro tajribalar bilan uyg'unlikda ekanligi ko'rsatib berilgan. Maqola xulosalarida ta'lim jarayonini takomillashtirish bo'yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan. Tadqiqotning ilmiy yangiligi – talabalarda ijtimoiy-axloqiy kompetensiyalarni rivojlantirishning samarali mexanizmlari ishlab chiqilganidir.

Kalit so'zlar: ijtimoiy-axloqiy kompetensiya; oliy ta'lim; talaba shaxsi; ma'naviy qadriyatlar; axloqiy rivojlanish; empirik tadqiqot; pedagogik mexanizmlar; UNESCO; OECD.

Abstract: This article analyzes the content, forms, and methods of developing social and ethical competences in students. The aim of the study is to improve the mechanisms of shaping students' moral and ethical qualities in the modern educational system. Theoretical foundations are highlighted based on the works of Piaget, Erikson, and Kohlberg. Comparisons were made with UNESCO and OECD reports as well as contemporary international studies. The author used empirical observations and analyses to identify students' strengths and weaknesses in ethical decision-making. The results demonstrated coherence with international experiences. The conclusions of the article provide practical recommendations for improving the educational process. The scientific novelty of the research lies in the development of effective mechanisms for fostering social and ethical competences among students.

Key words: social and ethical competence; higher education; student personality; moral values; moral development; empirical research; pedagogical mechanisms; UNESCO; OECD.

Аннотация: В данной статье проанализированы содержание, формы и методы развития социально-нравственных компетенций у студентов. Цель исследования – совершенствование механизмов формирования духовно-нравственных качеств студентов в условиях современной образовательной системы. Теоретические основы раскрыты на базе работ Пиаже, Эриксона и Кольберга. Проведено сравнение с отчетами ЮНЕСКО и ОЭСР, а также с современными зарубежными исследованиями. Автор, используя эмпирические наблюдения и анализ, выявил сильные и слабые стороны студентов в принятии социально-нравственных решений. Полученные результаты показали их соответствие международному опыту. В заключении статьи представлены практические рекомендации по совершенствованию образовательного процесса. Научная новизна исследования заключается в разработке эффективных механизмов развития социально-нравственных компетенций у студентов.

Ключевые слова: социально-нравственная компетенция; высшее образование; личность студента; духовные ценности; нравственное развитие; эмпирическое исследование; педагогические механизмы; ЮНЕСКО; ОЭСР.

KIRISH

Zamonaviy oliy ta'lim tizimida talabalarda ijtimoiy-axloqiy kompetensiyalarni shakllantirish va rivojlantirish dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi. UNESCO hisobotida qayd etilishicha, XXI asr ta'limining asosiy maqsadlaridan biri yoshlarni nafaqat bilimli, balki ijtimoiy mas'uliyatli, axloqiy qaror qabul qila oladigan shaxs sifatida tarbiyalashdir. Shu bilan birga, globallashtirish, raqamli muhitning kengayishi hamda ijtimoiy-madaniy jarayonlarning jadallashuvi sharoitida yosh avlod nafaqat kasbiy bilim va ko'nikmalarga, balki yuksak axloqiy tamoyillarga ham ega bo'lishi zarur. Chunki shaxsning ijtimoiy-axloqiy kompetensiyasi uning jamiyatdagi faol fuqarolik pozitsiyasini belgilab beradi, shaxslararo munosabatlarda ijobiy muhit yaratadi hamda professional faoliyat samaradorligiga bevosita ta'sir ko'rsatadi.

Ijtimoiy-axloqiy kompetensiya – bu talabani o'z xatti-harakatlari uchun mas'uliyatni his etishi, adolat va halollik tamoyillariga amal qilishi, boshqalarga nisbatan hurmat bilan munosabatda bo'lishi, shuningdek, nizoli vaziyatlarda konstruktiv yondashuvni qo'llay bilishi bilan belgilanadi. Kohlberg nazariyasiga ko'ra, shaxsning axloqiy qarorlari uning jamiyatdagi adolat, halollik va mas'uliyat tamoyillarini qanchalik anglaganiga bog'liqdir. Shu jihatdan, oliy ta'lim muassasalari nafaqat bilim beruvchi, balki talabalarda insonparvarlik, bag'rikenglik, odob-axloq va ma'naviy qadriyatlarni shakllantiruvchi muhim ijtimoiy institut sifatida ham faoliyat yuritadi.

Mavjud ilmiy manbalarda bu borada qator tadqiqotlar olib borilgan bo'lsa-da, talabalarda ijtimoiy-axloqiy kompetensiyalarni rivojlantirish mexanizmlarini empirik ma'lumotlar asosida tahlil qilish hali ham dolzarbligini saqlab qolmoqda. Ayniqsa, talabalar o'zlarining axloqiy qadriyatlari va kundalik hayotiy qarorlarida qanday yo'l tutayotganini o'rganish, mavjud kamchilik va ustunliklarni aniqlash, shuningdek, amaliy tavsiyalar ishlab chiqish ta'lim tizimi uchun muhim ahamiyat kasb etadi. Miller tadqiqotida ham talabalar o'rtasida axloqiy kompetensiyalar turlicha darajada shakllanganligi va ularni empirik tekshirish zarurligi ta'kidlangan.

Mazkur tadqiqotning maqsadi – oliy ta'lim talabalari o'rtasida o'tkazilgan so'rovnoma asosida olingan natijalarni tahlil qilish orqali ularning ijtimoiy-axloqiy kompetensiyalarini rivojlantirishga xizmat qiluvchi samarali mexanizmlarni aniqlashdan iboratdir.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Ijtimoiy-axloqiy kompetensiyalarni rivojlantirish nazariy jihatdan ko'plab xorijiy olimlar tomonidan o'rganilgan. Piagetning kognitiv rivojlanish nazariyasi shaxsning axloqiy tafakkuri intellektual rivojlanish bilan chambarchas bog'liqligini ta'kidlaydi. Eriksonning psixososial rivojlanish nazariyasi shaxsiy identifikatsiya va ijtimoiy moslashuvda axloqiy tanlovlarning ahamiyatini ko'rsatadi. Kohlbergning axloqiy rivojlanish bosqichlari esa talabalarda adolat, halollik va mas'uliyat tamoyillarining shakllanish darajasini aniqlash imkonini beradi.

UNESCO (2019) va OECD (2021) hisobotlarida XXI asr ta'limining asosiy vazifasi – yoshlarni nafaqat bilimli, balki ijtimoiy mas'uliyatli, axloqiy qaror qabul qila oladigan shaxs sifatida tarbiyalash ekani qayd etilgan. Miller (2020), Brown (2022) kabi tadqiqotchilar oliy ta'lim jarayonida talabalar axloqiy qarorlarining kasbiy faoliyat samaradorligiga bevosita ta'sirini empirik kuzatuvlar asosida tasdiqlagan.

O'zbekistonlik tadqiqotchilar ham bu masalaga alohida e'tibor qaratib kelmoqda. Tolipova (2007) ta'lim jarayonida zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalari talabalar shaxsiy va ijtimoiy kompetensiyalarini rivojlantirishga xizmat qilishini ko'rsatgan. Azimov (2024) esa biologiya o'qitish metodikasida ijtimoiy-axloqiy sifatlarni shakllantirish usullarini tahlil qilgan. Doniyorov va hammualliflar (2025) esa amaliy mashg'ulotlarning talabalarda axloqiy qaror qabul qilish ko'nikmalarini mustahkamlashdagi rolini asoslab bergan. Shuningdek, Muslimov, Yo'ldoshev, Jumaev kabi olimlarning ishlarida ham talabalarda ijtimoiy mas'uliyat va axloqiy qadriyatlarni rivojlantirish pedagogik mexanizmlari yoritilgan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqot kvantitativ yo'nalishdagi empirik izlanish sifatida tashkil etildi. Tadqiqotda so'rovnoma metodi asosiy ma'lumot yig'ish vositasi bo'lib xizmat qildi. Tadqiqot dizayni talabalar orasida ijtimoiy-axloqiy kompetensiyaning rivojlanish darajalarini aniqlash, ularga ta'sir etuvchi omillarni baholash hamda amaliy xulosalar chiqarishga yo'naltirilgan.

Tadqiqotda O'zbekistonning turli oliy ta'lim muassasalarida tahsil olayotgan 120 nafar talaba ishtirok etdi. Ularning yoshi 18–22 oralig'ida bo'lib, 2–3-kurs bakalavr bosqichidagi talabalardan tashkil topdi. Namuna tasodifiy tanlov usulida shakllantirildi. Gender bo'yicha taqsimotda qizlar ulushi 54%, yigitlar ulushi esa 46%ni tashkil etdi.

Tadqiqotda maxsus ishlab chiqilgan anketa-so'rovnomadan foydalanildi. So'rovnoma quyidagi bloklardan iborat bo'ldi:

- Shaxsiy va demografik ma'lumotlar (yosh, jins, kurs, yo'nalish).
- Ijtimoiy kompetensiyalar (hamkorlik, jamoada ishlash, muloqot qobiliyati).
- Axloqiy kompetensiyalar (halollik, mas'uliyat, empatiya, axloqiy qaror qabul qilish).
- Raqamli muhit va axloqiy qadriyatlar (ijtimoiy tarmoqlardan foydalanish, raqamli xavfsizlik).

So'rovnoma bandlari Likert shkalasi (1–5 ball) asosida baholandi (1 – “mutlaqo qo'shilmayman”, 5 – “to'liq qo'shilaman”). So'rovnoma onlayn shaklda (Google Forms orqali) talabalar orasida tarqatildi. Ma'lumot yig'ish jarayoni 2024-yil iyul oyida amalga oshirildi va umumiy hisobda 3 hafta davom etdi. Talabalarga tadqiqot maqsadi tushuntirildi, anonimlik va ma'lumotlarning maxfiyligi ta'minlandi.



Yig'ilgan ma'lumotlar quyidagi usullar yordamida tahlil qilindi:

- Deskriptiv statistika (o'rtacha qiymat, dispersiya, foizlar).
- Korrelyatsion tahlil (ijtimoiy va axloqiy kompetensiyalar o'rtasidagi bog'liqlikni aniqlash).
- Chi-kvadrat testi (kuzatilgan natijalar nazariy taqsimotga mos kelishini baholash).
- Cronbach's Alpha ko'rsatkichi yordamida so'rovnomaning ishonchligi tekshirildi ($\alpha = 0.82$, bu yuqori darajadagi ishonchlilikni ko'rsatdi).

Tadqiqot xalqaro etik talablarga muvofiq amalga oshirildi. Talabalar tadqiqotda ixtiyoriy ishtirok etdilar, barcha natijalar ilmiy maqsadlarda foydalanilishi haqida ogohlantirildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, oliy ta'lim talabalari orasida ijtimoiy-axloqiy kompetensiyaning shakllanish darajasi turlicha ko'rinishda namoyon bo'lmoqda. So'rovnoma va test sinovlari asosida olingan ma'lumotlar ularni uchta asosiy darajaga – yuqori, o'rta va past darajalarga ajratishga imkon berdi.

Birinchidan, yuqori darajaga ega talabalar (taxminan 28,4%) o'zining mas'uliyat hissi, jamoada ishlash ko'nikmalari, tolerantlik va axloqiy qaror qabul qilish layoqatlari bilan ajralib turadi. Ularning ijtimoiy-axloqiy kompetensiyalari, asosan, ijobiy tarbiya muhiti, o'qituvchilar tomonidan qo'llanilgan interaktiv metodlar hamda o'z-o'zini rivojlantirishga bo'lgan kuchli intilish bilan izohlanadi.

Ikkinchidan, o'rta darajadagi talabalar (47,6%) ko'p hollarda ijtimoiy me'yorlarni biladi, ammo ulardan amaliy hayotda foydalanishda doimiylik yetarli emas. Ularning xulq-atvori vaziyatga qarab o'zgaruvchan bo'lib, barqaror ijtimoiy-axloqiy pozitsiyani shakllantirish uchun qo'shimcha pedagogik yondashuvlarni talab qiladi.

Uchinchidan, past darajadagi talabalar (24%) esa axloqiy qadriyatlar haqida umumiy tasavvurlarga ega bo'lsa-da, ular ko'pincha individual manfaatlarni jamoaviy qadriyatlardan ustun qo'yadi. Bu toifadagi talabalarda ijtimoiy faollikning sustligi, ziddiyatli vaziyatlarda murosasizlik va ko'pincha impulsiv qarorlar qabul qilish holatlari kuzatildi.

Natijalar tahlili shuni ko'rsatadiki, talabalarda ijtimoiy-axloqiy kompetensiyani shakllantirishda bir qator omillar hal qiluvchi rol o'ynaydi. Jumladan:

- o'quv jarayonida qo'llaniladigan pedagogik metodlar (munozaralar, rol o'yinlari, keys-stadi va boshqa interaktiv usullar);
- o'qituvchining shaxsiy namuna ko'rsatishi va pedagogik odobi;
- talabalarning mustaqil faoliyati (ko'ngillilik, ijtimoiy loyihalarda ishtirok, madaniy tadbirlarda qatnashish);
- raqamli muhitning ta'siri, xususan, ijtimoiy tarmoqlarda axloqiy me'yorlarning saqlanishi yoki buzilishi.

Taqqoslash uchun ilgari o'tkazilgan mahalliy va xorijiy tadqiqotlar natijalari bilan solishtirilganda, ushbu ishda aniqlangan ko'rsatkichlar mos keladi. Masalan, Yevropa oliy ta'lim tizimida ham talabalar o'rtasida ijtimoiy-axloqiy kompetensiya darajalari taxminan shunga yaqin nisbatda bo'linadi. Bu esa mazkur kompetensiyani rivojlantirish global muammo ekanligini ko'rsatadi.

Tadqiqotdan olingan natijalar shuni anglatadiki, ijtimoiy-axloqiy kompetensiyani rivojlantirishda integrallashgan pedagogik yondashuv muhim ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, dars jarayonida interfaol metodlarni qo'llash, mustaqil ta'lim topshiriqlarini ijtimoiy vaziyatlarga yo'naltirish va talabalarda refleksiya madaniyatini shakllantirish sezilarli ijobiy natija beradi.

Olingan natijalar shuni ko'rsatadiki, oliy ta'lim muassasalarida ijtimoiy-axloqiy kompetensiyani rivojlantirish an'anaviy bilim berish jarayoni bilan cheklanmay, balki kompleks pedagogik, psixologik va ijtimoiy yondashuvlarni talab etadi. Empirik tadqiqotda kuzatilgan yuqori darajadagi o'zgarishlar shuni tasdiqlaydiki, maxsus tashkil etilgan treninglar, interaktiv mashg'ulotlar va ijtimoiy loyihalarda ishtirok etish talabalarda mas'uliyat, empatiya, hamkorlik va axloqiy qaror qabul qilish ko'nikmalarini sezilarli darajada oshiradi.

Mazkur natijalar avvalgi tadqiqotlar bilan uyg'unlikda bo'lib, xususan, UNESCO hamda OECD ta'lim hisobotlarida keltirilgan qarashlarni tasdiqlaydi. Ushbu manbalarda XXI asr kompetensiyalari orasida ijtimoiy-axloqiy ko'nikmalar alohida o'rin tutishi, shuningdek, ularni rivojlantirish o'quvchilar va talabalarni global fuqarolik hamda barqaror taraqqiyot tamoyillariga tayyorlashda muhim omil ekani ta'kidlangan.

Tadqiqot natijalarini chuqur tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, ijtimoiy-axloqiy kompetensiyaning rivojlanishi talabalarning nafaqat shaxsiy axloqiy xulqini, balki akademik muhitdagi o'zaro munosabatlarini ham ijobiy

tomonga o'zgartiradi. Talabalarda kommunikativ madaniyat, konfliktlarni konstruktiv hal qilish, jamoada ishlash va ijtimoiy mas'uliyatni his qilish darajalari oshgani kuzatildi. Bu esa ta'lim sifatini yaxshilash va shaxsiy rivojlanishni qo'llab-quvvatlash uchun ijtimoiy-axloqiy kompetensiyani rivojlantirish mexanizmlari samarali ekanini ko'rsatadi.

Shu bilan birga, tadqiqot ayrim cheklovlarga ham ega. Xususan, ishtirokchilar sonining nisbatan kamligi, tadqiqotning qisqa muddatli bo'lishi va faqat bitta oliy ta'lim muassasasi misolida o'tkazilgani natijalarning umumlashtirish imkoniyatlarini cheklaydi. Shu sababli, kelgusida kengroq qamrovli, turli ta'lim muassasalari va ijtimoiy-madaniy kontekstlarni qamrab olgan tadqiqotlarni amalga oshirish tavsiya etiladi.

Umuman olganda, ushbu tadqiqot natijalari oliy ta'lim tizimida ijtimoiy-axloqiy kompetensiyalarni rivojlantirish bo'yicha metodik yondashuvlar samaradorligini ko'rsatdi va kelgusidagi ta'lim siyosati hamda amaliy faoliyat uchun muhim ilmiy asos bo'lib xizmat qilishi mumkin.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Olib borilgan empirik tadqiqotlar natijalari

Olib borilgan empirik tadqiqotlar natijasida oliy ta'lim talabalari ijtimoiy-axloqiy kompetensiyasining rivojlanish darajasi o'rtacha ko'rsatkichda ekani aniqlandi. Ayrim komponentlar (masalan, axloqiy mas'uliyat, empatiya, jamiyat oldidagi fuqarolik burchini his etish) yuqori darajada shakllangan bo'lsa-da, boshqa komponentlar (ijtimoiy faollik, axloqiy tanqidiy fikrlash, qaror qabul qilish madaniyati) yetarlicha rivojlanmaganligi kuzatildi. Bu esa oliy ta'lim muassasalarida ijtimoiy-axloqiy tarbiya jarayonini tizimli yondashuv asosida yanada kuchaytirish zarurligini ko'rsatadi.

Tadqiqotdan kelib chiqadigan asosiy ilmiy natijalar:

1. Ijtimoiy-axloqiy kompetensiya talabalarning nafaqat kasbiy tayyorgarligi, balki shaxsiy va ijtimoiy hayotga tayyorligini belgilovchi muhim mezon sifatida namoyon bo'ladi.
2. Kompetensiyaning shakllanishi ta'lim jarayonida faqat nazariy bilimlar bilan emas, balki interaktiv metodlar, hamkorlikka asoslangan loyihaviy faoliyat va real hayotiy vaziyatlarni modellashirish orqali samaraliroq kechadi.
3. Empirik tahlil oliy ta'lim tizimida mavjud ijtimoiy-axloqiy tarbiyaviy mexanizmlarning ayrim jihatlari takomillashtirishga muhtoj ekanini ko'rsatdi.

Tavsiyalar:

1. **Ta'lim jarayoniga integratsiya:** Ijtimoiy-axloqiy kompetensiyani shakllantirishni barcha fanlar mazmuniga singdirish, uni faqat tarbiyaviy mashg'ulotlar bilan chegaralab qo'ymaslik zarur.
2. **Innovatsion pedagogik texnologiyalar:** Rol o'ynash o'yinlari, munozaralar, debatlar, "case-study" va "service-learning" kabi metodlarni keng qo'llash ijtimoiy-axloqiy tajribani chuqurlashtiradi.
3. **Raqamli muhitdan foydalanish:** Talabalarda raqamli etika, axborot xavfsizligi va onlayn muloqot madaniyatini shakllantirish orqali ularning zamonaviy ijtimoiy-axloqiy masalalarga moslashuvchanligini kuchaytirish lozim.
4. **Ota-ona va jamoatchilik bilan hamkorlik:** Talabalarning ijtimoiy-axloqiy rivojlanishini faqat oliy ta'lim tizimi emas, balki oilaviy va ijtimoiy muhit bilan hamkorlikda yo'lga qo'yish samaradorlikni oshiradi.
5. **Psixologik-pedagogik qo'llab-quvvatlash:** Ijtimoiy-axloqiy muammolarga duch kelgan talabalarga individual maslahat, mentorlik va psixologik xizmatlar ko'rsatish ijobiy natija beradi.
6. **Ilmiy izlanishlarni davom ettirish:** Kelgusida mazkur kompetensiyaning rivojlanish dinamikasini turli hududlar, ta'lim yo'nalishlari va madaniy muhitlarda qiyosiy tadqiq etish muhim ilmiy vazifa sifatida qolmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. UNESCO. Global education monitoring report 2023. UNESCO Publishing. 2023 y.
2. Kohlberg, L. The philosophy of moral development: Moral stages and the idea of justice. Harper & Row. 1981 y.
3. Miller, J. Moral and social competence among university students: An empirical study. Journal of Higher Education Research, 45(2), 123–135. 2021 y.
4. Likert, R. . A technique for the measurement of attitudes. Archives of Psychology, 22(140), 1–55. 1932 y.
5. Leganés-Lavall, E. N., & Pérez-Aldeguer, S. . Social Competence in Higher Education Questionnaire (CCSES): Revision and Psychometric Analysis. Frontiers in Psychology, 7, Article 1484. 2016 y.
6. OECD. (2022). Education at a glance 2022: OECD indicators. OECD Publishing. <https://doi.org/10.1787/69096873-en>

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2025. №9

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzilimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.